

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №11

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2025 noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari  
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>™</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 121 sahifa.  
2025-yil, noyabr

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI .....	22
<b>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</b>	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR .....	30
<b>Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi</b>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	35
<b>Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna</b>	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
<b>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
<b>Xodjimaton Xamidullo Mamirjonovich</b>	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
<b>Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich</b>	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
<b>Axatova Shahnoza</b>	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH .....	63
<b>Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna</b>	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
<b>Хошимова Камилла Навфал қизи</b>	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ .....	79
<b>Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна</b>	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
<b>Файзиев Умуркул Шухратович</b>	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI .....	97
<b>Jalilov Jamshid G'anijonovich</b>	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
<b>Ўролова Севара Бехзод қизи</b>	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
<b>Narziyev Hayotjon Azamatovich</b>	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
<b>Allakuliyev Akmal Baltayevich</b>	



# NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI

**Allakuliyev Akmal Baltayevich**

PhD., Professor v.b.,  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti rektori

**Annotatsiya.** Maqolada natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish (NYB) tizimining nazariy asoslari va uni O'zbekiston moliya tizimiga tatbiq etish zarurati tahlil qilingan. Tadqiqotda NYB davlat resurslaridan samarali foydalanish va budjet siyosatini natijadorlik tamoyillariga asoslash vositasi sifatida baholangan. Jahon tajribasi NYB tizimi fiskal intizom, shaffoflik va javobgarlikni oshirishini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida ushbu yondashuv moliya tizimini modernizatsiya qilish va iqtisodiy boshqaruv samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish, fiskal islohotlar, samaradorlik, davlat moliyasi, shaffoflik.

**Abstract.** The article analyzes the theoretical foundations of the Performance-Based Budgeting (PBB) system and the need for its implementation in Uzbekistan's financial sector. The study views PBB as a tool for the efficient use of public resources and the formation of budget policy based on performance principles. Global experience shows that this approach strengthens fiscal discipline, transparency, and accountability. In the context of Uzbekistan, it contributes to the modernization of the financial system and the improvement of economic management efficiency.

**Keywords:** performance-based budgeting, fiscal reforms, efficiency, public finance, transparency.

**Аннотация.** В статье проанализированы теоретические основы системы бюджетирования, ориентированной на результат (БОР), и необходимость её внедрения в финансовую систему Узбекистана. В исследовании БОР рассматривается как инструмент эффективного использования государственных ресурсов и формирования бюджетной политики на принципах результативности. Мировой опыт показывает, что такая система способствует укреплению фискальной дисциплины, прозрачности и подотчётности. В условиях Узбекистана данный подход служит важным фактором модернизации финансовой системы и повышения эффективности экономического управления.

**Ключевые слова:** бюджетирование, ориентированное на результат; фискальные реформы; эффективность; государственные финансы; прозрачность.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv, iqtisodiy integratsiya va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishi davlat moliya tizimining samarali boshqaruviga bevosita bog'liqdir. Davlat budjeti endilikda faqat daromad va xarajatlarni taqsimlash vositasi emas, balki iqtisodiy siyosatni amalga oshiruvchi strategik boshqaruv instrumenti sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu boisdan, budjet siyosatini natijaviylik tamoyillariga asoslash zamonaviy davlat moliyasi va boshqaruvi tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish (NYB) bu davlat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, har bir ajratilgan mablag'ning ijtimoiy-iqtisodiy natijasini aniq o'lchash, baholash va ularni strategik maqsadlar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan ilmiy boshqaruv mexanizmidir. Mazkur yondashuv "qancha mablag' sarflandi" degan an'anaviy yondashuvdan "bu xarajat qanday natija berdi" tamoyiliga o'tishni taqozo etadi. Shu orqali budjet tizimi nafaqat moliyaviy, balki strategik boshqaruv va javobgarlik vositasiga aylanadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, NYB tizimi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash bilan bir qatorda davlat boshqaruvi madaniyatini ham tubdan o'zgartiradi. AQSh, Fransiya, Janubiy Koreya va Avstraliya tajribalarida bu yondashuv davlat xarajatlarning natijadorligini oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda fiskal intizomni ta'minlashda muhim omil bo'lgan. Masalan, Janubiy Koreyada "e-Performance Management System" orqali budjet ijrosi real vaqt rejimida kuzatib boriladi, Fransiyada esa "LOLF" qonuni doirasida har bir davlat dasturining maqsad, indikator va natijalari qonuniy asosda belgilangan.

O'zbekiston sharoitida ham natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan fiskal islohotlar doirasida budjet jarayonlarini samaradorlik, shaffoflik va javobgarlik tamoyillariga asoslashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyevning "barcha darajadagi budjetlar faoliyatining asosiy mezonlari ularning natijadorligi bo'lishi kerak" degan fikri aynan ushbu yo'nalishning konseptual mohiyatini ifodalaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida natijaviylik tamoyillarini institutsional darajada joriy etish uchun muhim hujjatlar qabul qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bu boradagi eng muhim qadam bo'lib, unda budjet siyosatini natijaviylik, ochiqlik va mas'uliyat tamoyillariga asoslangan holda takomillashtirish, davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu strategik hujjatlar NYB tizimini davlat boshqaruvi va iqtisodiy siyosatning markaziga olib chiqib, budjet resurslaridan samarali foydalanish orqali ijtimoiy barqarorlik va makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan.

Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan, natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirishning joriy etilishi davlat moliyasi barqarorligini ta'minlash, budjet defitsitini kamaytirish, davlat qarzini maqbullashtirish va ijtimoiy dasturlar samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu tizim iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, fiskal intizomni mustahkamlash hamda xalqaro moliyaviy reytinglarda mamlakatning ishonchlilik darajasini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish konsepsiyasi davlat moliyasini boshqarishning zamonaviy bosqichida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashning muhim vositasi sifatida shakllangan. Bu yondashuvda asosiy e'tibor budjet mablag'lari sarfini emas, balki ular orqali erishilayotgan aniq natijalarni baholashga qaratiladi. Shu sababli, mazkur konsepsiya davlat moliyasining faqat hisobot yoki rejalashtirish tizimi emas, balki strategik boshqaruv mexanizmi sifatida qaraladi.

Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirishning nazariy ildizlari iqtisodchi olim Richard Masgreyv tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u o'zining "Davlat moliyasi nazariyasi" asarida davlat budjeti uchta asosiy funksiyani – taqsimlash, barqarorlashtirish va qayta taqsimlash funksiyalarini bajarishini ta'kidlagan [1]. Masgreyv fikricha, davlat xarajatlarning samaradorligi nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar, balki ularning ijtimoiy farovonlikka ta'siri orqali baholanishi kerak. U davlat moliyasini natijadorlik mezonlari asosida boshqarishni iqtisodiy o'sish va ijtimoiy adolatni ta'minlashning eng muhim omillaridan biri deb hisoblaydi.

Budjet siyosatiga natijadorlik mezonlarini kiritish g'oyasini rivojlantirgan siyosatshunos olim Aaron Uayldavski bo'lib, u "Budjetlash jarayonining siyosati" nomli asarida budjetni siyosiy va iqtisodiy qarorlar o'rtasidagi muvozanat sifatida izohlaydi [2]. Uayldavski budjetni shunchaki raqamlar yig'indisi emas, balki siyosiy qarorlar tizimi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, budjetni natijaga yo'naltirish davlat boshqaruvida mas'uliyat va hisobdorlikni kuchaytiradi.

Mazkur yo'nalishda Anvar Shoh tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. U o'zining "Davlat sektori boshqaruvi va hisobdorlik" nomli ishida budjetni natijadorlik asosida shakllantirishni davlat boshqaruvinisloh qilishning markaziy yo'nalishi sifatida asoslaydi [3]. Shohning fikricha, davlat budjeti "resurs - faoliyat - natija - ta'sir" zanjiri asosida tashkil etilishi lozim. U budjetlashtirishda moliyaviy intizomni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va xarajatlarning ijtimoiy samaradorligini oshirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi.

Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirishning metodologik tamoyillarini ishlab chiqqan olimlar Jan Allen va Daniel Tommasi o'z ishlarida "pulga munosib qiymat" tamoyilini ilgari suradilar [4]. Ularning fikricha, har bir davlat xarajatining asosiy mezonlari - har bir sarflangan so'mga nisbatan jamiyat uchun keltirilgan foyda bilan o'lchanishi kerak. Ular ishlab chiqqan modelda samaradorlik, tejamkorlik va natijadorlik uchlik tizimi asosiy nazariy mezon sifatida ko'rsatiladi.

Natijaviylikka yo'naltirilgan budjet tizimining chuqur nazariy asoslarini Rober Robinson ishlab chiqqan bo'lib, u budjet faoliyatining samaradorligini nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy va institutsional natijalar orqali baholashni taklif etadi [5]. Robinsonning fikricha, budjet tizimi nafaqat xarajatlarni hisobga olish, balki ularning ijtimoiy ta'sirini o'lchash, ya'ni inson kapitalining rivojlanishi, infratuzilma holati, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini aniqlash vositasi bo'lishi kerak.

Shuningdek, Jozef Stiglits, Vito Tanzi va Oliviye Blanshar kabi olimlar davlat moliyasining samaradorligi, hisobdorligi va natijadorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilganlar [6]. Ularning fikricha, natijaviylikka yo'naltirilgan budjet tizimi demokratik boshqaruvning ajralmas qismi bo'lib, u davlat idoralari faoliyatining ochiqligini va jamiyat oldidagi javobgarligini ta'minlaydi.



Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirishning amaliy joriy etilishi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va budjet intizomini mustahkamlashda ijobiy natija beradi. Masalan, amerikalik tadqiqotchi Devid Ben AQShdagi shtat budjetlari islohoti natijalarini tahlil qilib, natijaviy yondashuv joriy etilgan hududlarda xarajatlar nazoratining oshganini va mablag' sarfi bilan erishilgan natijalar o'rtasida muvozanat shakllanganini aniqlagan [7].

Yevropa mamlakatlari tajribasini o'rgangan Shirli Gregori va Djon Boyn o'z tadqiqotlarida natijaviylikka asoslangan budjet tizimi iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaganlar [8]. Ularning fikricha, indikatorlar orqali natijalarni baholash davlat resurslarining yo'qotilishiga yo'l qo'ymaydi va budjet siyosatining barqarorligini ta'minlaydi.

Janubiy Koreya tajribasi bu borada eng ilg'or hisoblanadi. Koreyalik olimlar Kim Sunjun va Li Jonghun olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, elektron budjet monitoringi va natijadorlik ko'rsatkichlariga asoslangan moliyalashtirish tizimi davlat investitsiyalarining samaradorligini 15-20 foizga oshirgan [9]. Bu yondashuv davlat dasturlarining ijrosini tezkor nazorat qilish, korrupsiya xavfini kamaytirish va ochiqlikni ta'minlash imkonini bergan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy va qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlashda moliya tizimi strategik o'rin tutadi. U resurslarni samarali taqsimlash, investitsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni moliyalashtirish va tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish orqali ishlab chiqarish hajmini oshiradi. Shuning uchun ham, zamonaviy iqtisodiyotlarda moliyaviy sektorning rivojlanganlik darajasi makroiqtisodiy barqarorlikning asosi sifatida qaraladi.

O'zbekiston tajribasida so'nggi yillarda bank tizimi, kapital bozori, sug'urta va lizing sektorlarining bosqichma-bosqich rivojlanishi iqtisodiyotning moliyaviy asosini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Quyidagi jadvalda moliya tizimi rivojining asosiy tarkibiy yo'nalishlari tahliliy jihatdan ifodalangan.

1-jadval. O'zbekiston moliya tizimi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari

Yo'nalish	Tavsif	Iqtisodiy ahamiyati
Bank tizimini chuqurlashtirish	Tijorat banklarining kapitallashuvi, yangi moliyaviy mahsulotlar joriy etilishi	Investitsion oqimlarni ko'paytiradi, real sektorni kredit bilan ta'minlaydi
Kapital bozorini rivojlantirish	Aksiyalar va obligatsiyalar emissiyasi, fond birjasi faoliyatining faollashuvi	Uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini yaratadi
Sug'urta va lizing xizmatlarini kengaytirish	Kichik va o'rta biznes uchun xavflarni kamaytiruvchi mexanizmlar	Tadbirkorlik barqarorligini oshiradi
Raqamli moliya ekotizimini joriy etish	Elektron to'lov tizimlari, fintech platformalar	Moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi, samaradorlikni oshiradi

Manba: Muallif tomonidan mavjud ilmiy tadqiqotlar asosida tuzilgan.

Jadvalda keltirilgan yo'nalishlar moliya tizimi rivojining kompleksligini ko'rsatadi. Moliya infratuzilmasining faollashuvi nafaqat kapitalni to'plash, balki uni real iqtisodiyot sohalariga oqilona yo'naltirish imkonini yaratadi.

O'zbekiston sharoitida ayniqsa raqamli moliya ekotizimi va kapital bozori infratuzilmasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli to'lovlar tizimi orqali aholi va korxonalar o'rtasida tranzaksiyalar tezlashmoqda, bu esa iqtisodiyotdagi aylanish tezligini oshiradi. Kapital bozorining rivojlanishi esa bank kreditlariga qaramlikni kamaytirib, iqtisodiyotda moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasini ta'minlaydi.

Biroq, moliyaviy tizimning o'sishi iqtisodiy o'sishga avtomatik tarzda olib kelmaydi. Bu jarayon samarali bo'lishi uchun institutsional muhit, huquqiy barqarorlik va moliyaviy savodxonlik darajasi yetarli bo'lishi lozim. Shu jihatdan, O'zbekiston moliya tizimining rivojlanishi endi real sektor bilan yanada integratsiyalashgan modelga o'tishni talab etmoqda.

Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyoti mamlakat moliya tizimida chuqur tarkibiy islohotlarni talab etadi. Ushbu islohotlar moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va budjet mablag'larining natijadorligini oshirish imkonini beradi. Quyida ushbu islohotlarning umumiy tuzilmasi uch bosqichli yondashuv asosida keltirilgan (2-jadval).

## 2-jadval. Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish doirasida moliya tizimi islohotlarining bosqichlari

Bosqich	Islohot yo'nalishi	Mazmuni va asosiy maqsadi
<b>1-bosqich: Makro daraja</b>	Budjetlararo munosabatlarni isloh qilish	Respublika, viloyat, shahar va tuman budjetlari o'rtasida o'zaro moliyaviy muvofiqlikni ta'minlash, o'rta muddatli fiskal rejalashtirishni joriy etish, hududiy budjetlar tahlilini kuchaytirish.
<b>2-bosqich: Mezo daraja</b>	Budjet jarayonini modernizatsiya qilish	Budjet loyihalarini ishlab chiqish, muhokama qilish, tasdiqlash va ijro etish tizimini takomillashtirish; natijaviylikka asoslangan moliyalashtirish va ochiqlik tamoyillarini joriy etish.
<b>3-bosqich: Mikro daraja</b>	Budjet muassasalarining tashkiliy tuzilmasini qayta ko'rib chiqish	Strategik maqsadlarni dasturiy yondashuv asosida amalga oshiruvchi muassasalar faoliyatini optimallashtirish, budjet klassifikatsiyasini yangilash, ichki audit va monitoring tizimini kuchaytirish.

Manba: Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda xalqaro tajriba (OECD, IMF, World Bank) asosida tuzilgan.

Jadvalda keltirilgan uch bosqichli yondashuv natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotining ilmiy-nazariy asoslarini ifodalaydi. Har bir bosqichning o'ziga xos iqtisodiy va institutsional vazifasi mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq tizimni tashkil etadi.

Makro daraja mamlakat miqyosida fiskal barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u budjetlararo munosabatlarni qayta muvozanatlashtirish orqali moliyaviy resurslarni hududlar kesimida adolatli taqsimlashni ko'zda tutadi. Bu bosqichda o'rta muddatli fiskal rejalashtirish, hududiy moliyaviy tahlil va fiskal mas'uliyat mexanizmlarini kuchaytirish eng muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, bu jarayon davlat budjeti tarkibini optimallashtirish va "budjet federalizmi" tamoyillarini amalda tatbiq etish imkonini beradi.

Mezo daraja budjet jarayonining amaliy mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish bilan tavsiflanadi. Unda asosiy maqsad - budjet siyosatining natijaviylik va shaffoflik tamoyillari asosida yuritilishini ta'minlashdir. Bu darajada budjet loyihalarini tayyorlash va ijro etish bosqichlari o'rtasidagi muvofiqlikni oshirish, indikatorlarga asoslangan moliyaviy rejalashtirish va hisobdorlik tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu orqali davlat moliyasi samaradorlikka asoslangan boshqaruv paradigmasiga o'tadi.

Mikro daraja esa budjet tashkilotlari faoliyatining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlaydi. Bu bosqichda resurslardan foydalanish mexanizmlari, tashkiliy tuzilma, ichki audit va monitoring tizimlari qayta tashkil etiladi. Ayniqsa, natijaviylik ko'rsatkichlari asosida moliyalashtirish, ichki samaradorlikni baholash va kadrlar salohiyatini oshirish orqali budjet intizomini kuchaytirish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish O'zbekiston moliya tizimini zamonaviy boshqaruv standartlariga moslashtirish, fiskal barqarorlikni mustahkamlash va davlat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini kuchaytirishning eng muhim omilidir. Bu konsepsiya nafaqat moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini, balki ularning iqtisodiy natijalarga yo'naltirilgan strategik boshqaruv mexanizmi sifatida ishlashini ta'minlaydi. Shu tariqa, moliya tizimida natijaviylik, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari ustuvorlik kasb etib, iqtisodiy siyosatning barqarorligi va milliy rivojlanishning moliyaviy asoslari yanada mustahkamlanadi.

Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyoti davlat moliya tizimini tubdan modernizatsiya qilish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va budjet siyosatini natijadorlik mezonlari asosida shakllantirishga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston moliya tizimida mazkur yondashuvni samarali tatbiq etish uchun quyidagi kompleks takliflar ishlab chiqilishi zarur.

Birinchidan, strategik fiskal boshqaruvni kuchaytirish maqsadida makro darajada budjetlararo moliyaviy muvozanatni ta'minlaydigan tizim joriy etilishi lozim. Bunda hududlar budjet mustaqilligini kengaytirish, o'rta va uzoq muddatli fiskal strategiyalarni qonunchilik darajasida mustahkamlash, shuningdek, hududiy daromad va xarajatlar tuzilmasini qayta ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon natijaviylikka asoslangan resurs taqsimoti orqali hududiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Ikkinchidan, budjet jarayonining institutsional samaradorligini oshirish mezo darajadagi islohotlarning markazida bo'lishi kerak. Har bir budjet loyihasi aniq natijaviylik indikatorlari asosida rejalashtirilib, ularning ijrosi raqamli nazorat tizimlari orqali monitoring qilinishi lozim. Budjet ma'lumotlarining ochiqligini oshirish, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish va "performance budgeting" tamoyillarini tatbiq etish orqali davlat xarajatlarining ijtimoiy-iqtisodiy samarasini oshirish mumkin.

Uchinchidan, budjet muassasalarining ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish mikro darajadagi islohotlarning asosiy yo'nalishi sifatida belgilanadi. Bunda natijaviylikka asoslangan moliyaviy boshqaruv madaniyatini shakllantirish, ichki audit va samaradorlik monitoringini joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish



hamda har bir tashkilotning moliyaviy intizomini kuchaytirish zarur. Ushbu yondashuv davlat sektorida mas'uliyat, hisobdorlik va natija uchun javobgarlikni kuchaytiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musgrave R. *The Theory of Public Finance*. – New York: McGraw-Hill, 1959. – 450 p.
2. Wildavsky A. *The Politics of the Budgetary Process*. – Boston: Little, Brown and Company, 1975. – 398 p.
3. Shah A. *Public Sector Governance and Accountability*. – Washington, D.C.: World Bank Publications, 2005. – 372 p.
4. Allen J., Tommasi D. *Managing Public Expenditure: A Reference Book for Transition Countries*. – Paris: OECD Publishing, 2001. – 512 p.
5. Robinson M. *Performance Budgeting: Linking Funding and Results*. – London: Palgrave Macmillan, 2007. – 336 p.
6. Stiglitz J., Tanzi V., Blanchard O. *Economics of the Public Sector*. – New York: W.W. Norton & Company, 2002. – 589 p.
7. Behn D. *Why Measure Performance? Different Purposes Require Different Measures*. // *Public Administration Review*. – 2003. – No. 5. – P. 45–57.
8. Gregory S., Boyne J. *Performance-Based Budgeting in European Countries: Lessons and Outcomes*. // *International Review of Administrative Sciences*. – 2014. – No. 4. – P. 78–91.
9. Kim S., Lee J. *E-Budgeting and Performance Management in Korea*. // *Asian Economic Research Journal*. – 2012. – No. 3. – P. 102–118.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)